Har bir molekula o'zida zaryad yoki juftlashmagan elektron tutgan uglerod atomlari mavjud 5 yoki 6 ekvivalent strukturalarning gibrididan iborat. Shunga qaramay mazkur birikmalardan faqat 4tasi o'ta yuqori barqarorlikka ega: tsiklopropenil-kation tsiklopentadienil-anion, tsikloheptatrienil-kation (tropiliy-ion) vatsiklooktatetraenil-dianion.

Azulen (bitsiklo[5.3.0]dekapentaen) – nobenzoid aromatik birikma bo'lib, 5 va 7 a'zoli halqalar kondensatsiyasidan hosil bo'lgan va u naftalin izomeri xisoblanadi:



300°C dan yuqorigacha qizdirilganda izomerlanib naftalinga o'tadi. Uning hosilalari tabiiy efir moylari tarkibida ko'p uchraydi. Ular parfyumeriya va kosmetika sanoatida keng qo'llaniladi.


Annulenlar – bu to'liq tutashgan monohalqali polien birikmalar bo'lib, "annulen" lotincha anulos-halqa so'zidan olingan. Halqaning o'lchami uning nomidan oldin raqam bilan ko'rsatiladi.



Tsiklobutadien –
[4]-annulen




Benzol -[6]-annulen




Tsiklooktataetrien –-[8]-annulen

[10]-annulen Xyuyukel qoidasiga ko'ra tekis molekula bo'lganda aromatik bo'lishi kerak edi. Aslida esa tsiklodekapentaenning barcha izomerlari "kuchlanishga" ega bo'lib, molekulaning tekis bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Xatto ular orasidagi barqaror bo'lgan trans-,tsis-,trans-tsisis-,tsis-izomerda xam kichik burchak "kuchlanishi" bo'lganda ichki vodorodlar orasida kuchli itarilish sodir bo'lishi molekulaning tekis bo'lishiga xalaqit beradi.





trans-,tsis-,trans-tsisis-,tsis-[10]-annulen

Shu sababga ko'ra [10]-annulen aromatik xisoblanmaydi. Ammo ichki vodorodlarni metilen guruhiga almashtirilsa, fazoviy to'siq yo'qolib, molekula aromatik bo'ladi.




1,6-metano-[10]-annulen

Xuddi shu sabablarga ko'ra [14]-annulen aromatik emas, ko'prikchali hosilalari esa aromatik xisoblanadi




Aromatik qatorda elektrofil almashinish reaktsiyalari

Aromatik yadro ishtirok etadigan asosiy elektrofil almashinish reaktsiya tiplari o'rin almashish, birikish va oksidlanish reaktsiyalaridir. Aromatik yadro bilan alkenlardagi elektrofil birikish reaktsiyalarida ma'lum o'xshashliklar bor. Alkenlar qo'shbog'iga birikadigan ko'plab reagentlar aromatik yadroda vodorodni o'rnini bosadi (Cl_2 , Br_2 , H_2SO_4 , HOCl , HOBr). Bundan tashqari bu reaktsiyalar elektrofil agent ishtirokida sodir bo'ladigan qutbli bosqich jarayonlariga ega, elektrofil uglerodga xujum qilib, oraliq kation hosil bo'lishiga olib keladi. Bu bosqich umumiyoq ko'rinishda quyidagicha ifodalanishi mumkin, bunda xujum qiluvchi agent sifatida X^Q kation yoki neytral, ammo qutblangan molekula $\text{X}^{\delta Q}-\text{Y}^{\delta-}$ qatnashishi mumkin




Bu oraliq birikma aromatik tuzilishga ega bo'lmaydi, u beqaror kation bo'lib, undagi 4 π -elektronlar yadrodagisi 5ta uglerod atomida delokallashgan. 6-uglerod atomi esa to'yigan xolatga o'tib, gibrildi sp^3 bog'i hosil qiladi.


tuzilishi quyida keltirilgan strukturalarning gibrildi tuzilishidan paydo bo'ladi va ularning gibrildi strukturadagi xissasi bir xil bo'ladi:




Oraliq birikmadan proton ajralishi aromatik sistemaning qaytarilishiga sabab bo'lib, benzolning almashinish mahsuloti hosil bo'ladi:



Benzoldagi almashinish reaktsiyalari






Almashuvchi agent tabiatı ta'siri

Aromatik almashinish reaktsiyalarida xujum qiluvchi X^Q yoki $X^{\delta Q} - Y^{\delta -}$ agent har doim xam dastlab reaktsion aralashmaga kiritilgan reagent bo'lmasligi mumkin. Masalan nitrat va sulfat kislotalari bilan nitrolash reaktsiyasi odatda aromatik birikmaga nitrat kislota molekulasi emas, balki elektrofilligi yuqoriroq bo'lgan agent – NO_2^Q nitroniy ioni xujumi bilan boradi. Bu ionning nitrat va sulfat kislotalaridan quyidagi tenglama bo'yicha hosil bo'lishi isbotlangan:




Hosil bo'lgan nitroniy ioni aromatik yadroga xujum qilib, aromatik birikmaning nitroalmashinishini sodir etadi:




Aromatik almashinishda reaktsiyalarning boshlanishi uchun ko'p xollarda katalizatorlar kerak bo'ladi; ularning vazifasi dastlabki reagentlarni elektrofil xujum qiluvchi arrachalarga aylantirishdan iborat.

Nitrolash reaktsiyalari

Toluol nitrat va sulfat kislotalarning 1:2 nisbati qo'llanilganda oson nitrolanadi va o-, m- va p-nitrotoluollar aralashmasi hosil bo'ladi:




Reaktsion aralashmada oz miqdorda xam suv bo'lishi reaktsiya tezligini kamaytirib yuboradi. Shuning uchun juda kontsentrlangan (tutovchi) nitrat kislota va sulfat kislotalar qo'llanilish aralashma faolligini oshiradi va reaktsion qobiliyati nisbatan kam bo'lgan birikmalarini nitrolash imkonini beradi. Masalan, almashinish reaktsiyalarida p-nitrotoluolning faolligi toluolga nisbatan juda kam, ammo uni ortiqcha nitrat kislota va tutovchi sulfat kislota bilan nitrolansa, osonlik bilan 2,4-dinitrotoluol va 2,4,6-trinitrotoluolga o'tadi:




Aromatik birikmalarni galogenlash reaktsiyalari


Aromatik birikmalarni galogenlashda galogenlar faolligi quyidagi qatorda kamayib boradi $\text{F}_2 > \text{Cl}_2 > \text{Br}_2 > \text{I}_2$. Ftor juda faol, amalda aromatik ftorhosilalarni olish uchun alohida usullarni qo'llash lozim bo'ladi. Iod ko'p xollarda etarli darajada reaktsion qobiliyat namoyon etmaydi. Agar nitrat kislota ishtirokida iodlanish reaktsiyasi olib borilsa, unum yaxshi bo'ladi:



Xlor va brom ishtirokida galogenlash reaktsiyalarida yorug'li nuri ta'siridan saqlanish loim, aks xolda alkilbenzol galogen bilan fotokimyoviy reaktsiyaga kirishadi, bunda alkil radikali vodorodi aromatik halqa vodorodidan tezroq galogenlanadi. Toluol yorug'lik ta'sirida xlor bilan reaktsiyaga kirishib, benzilxlorid hosil qiladi:




Yorug'lik nuri ta'sirida aromatik halqaga galogen birikishini amalga oshirish mumkin:



Alkillash reaksiyalari


Alkilbenzollarni sintezining muhim usuli aromatik uglevodorodga metallgalogenidi ishtirokida (odatda alyuminiy xlorid) alkilgalogenid ta'sir ettirishdir. Bu yuqorida ko'rilgan Fridel-Krafts bo'yicha alkillash reaksiyalaridir



Agar kislotali katalizatorlar qo'llanilsa (H_3PO_4 , H_2SO_4 , HF, BF_3 yoki $\text{HF}-\text{BF}_3$), alkillashda spirtlar va alkenlar xam qo'llanishi mumkin:

Aromatik birikmalarni atsillash reaksiyaları

Atsillash reaksiyaları aromatik yadroga atsil guruhini kiritishning qulay usuli hisoblanadi (arilalmashgan ketonlar hosil bo'ladi). Atsilovchi agentlar sifatida ko'pincha atsilgalogenidlari va kislota angidridlari qo'llaniladi. Katalizator odatda alyuminiy xlorid qo'llaniladi, uning vazifasi almashinuvchi agentni faol xolga o'tkazishdir:



Aromatik yadrodagи elektrofil almashinishda o'rinxbosarlarning reaksiyon qobiliyatи va orientatsiyagata'siri


Aromatik birikmalarda almashinish reaksiyalarini o'rganishda 3ta asosiy muammo paydo bo'ladi:

1. Hosil bo'lган izomerlarning tuzilishini tasdiqlash (orto, meta yoki para);

2. Izomerlar aralashmasi hosil bo'lganda har bir izomerning foiz miqdorini aniqlash;


3. Almashinishga kirishayotgan aromatik birikmaning reaktsion qobiliyati ba'zi standart modda, odatda benzolga nisbatan taqqoslash.

Benzol hosilalari tuzilishi spektral usullar bilan aniqlanishi mumkin. Ba'zan hosil bo'lgan izomerni tuzilishi ma'lum moddaga aylantirish yo'li bilan aniqlanadi. Masalan, triflormetilbenzol nitrolanganda faqat bitta – metanitrohosila hosil bo'ladi, uni oksidlash yo'li bilan ma'lum m-nitrobenzoy kislotaga aylantirib, aniqlash mumkin:



Aromatik birikmalarni nitrolash reaktsiyalarida orientatsiya muammolari to'liq o'r ganilgan bo'lib, ushbu reaktsiyalar uchun olingan xulosalarning aksariyati galogenlash, sulfolash, alkillash va atsillash reaktsiyalari uchun xam mos keladi. Benzolning qator monoalmashgan hosilalarini nitrolash ma'lumotlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Ba'zi monoalmashgan benzol hosilalarini nitrolanish reaktsiyasi tezligi va orientatsiyasi ma'lumotlari



O'rribosar	Orientatsiya			Nisbiy reaktsion qobiliyat	Partsial tezliklar omillari		
	orto	meta	para		f_o	f_m	f_p
-CH ₃	56,5	3,5	40	24	42	2,5	58
-C(CN ₃) ₃	12,0	8,5	79,5	15,7	5,5	4,0	75
-SH ₂ Cl	32,0	15,5	52,5	0,302	0,29	0,14	0,951
- CI	29,6	0,9	68,9	0,033	0,029	0,0009	0,137
-Br	36,5	1,2	62,4	0,03	0,033	0,0011	0,112
-NO ₂	6,4	93,2	0,3	$\approx 10^{-7}$	$1,8 \times 10^{-6}$	$2,8 \times 10^{-5}$	2×10^{-7}
-CO ₂ C ₂ H ₅	28,3	68,4	3,3	0,0003	$2,5 \times 10^{-4}$	6×10^{-4}	5×10^{-5}
--CF ₃		100					
-N ⁺ (CH ₃) ₃		89	11				

Bu jadvalda hosil bo'ladigan orto-, meta- va para-izomerlar foiz miqdori vareaktsiya tezligi benzolga nisbatan keltirilgan. Reaktsiya tezligi shuningdek f_o , f_m , f_p bilan belgilangan partsial tezliklar omillari orqali xam ifodalangan (har bir izomer hosil bo'lish tezligi). Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'rribosarlarni uch kategoriyaga bo'lish mumkin:

1. Benzolga nisbatan barcha xolatlarni faollashtiruvchi o'rribosarlar ($f > 1$, masalan -SN₃, -S(SN₃)₃), ayniqsa, meta xolatga nisbatan orto va para xolatlar ko'proq faollashadi. Bunday o'rribosarlar asosan orto va para izomerlar hosil bo'lishiga olib keladi. **Ular orto, para orientantlarni faollashtiruvchilar sinfini tashkil etadi.** Jadvalda keltirilgan guruhlardan tashqari -ON, -OSN₃, -NR₂ va -NHCOCH₃ guruhlar xam shu sinfga kiradi.

2. Yadrodag'i barcha xolatlar faolligini kamaytiruvchi ($f < 1$, -Cl, -Br, -CH₂Cl), ayniqsa, orta va para xolatlar faolligi kamayishi meta xolatga nisbatan kamroq. Bular xam asosan orto va para izomerlar hosil bo'lishiga olib keladi. Bu kabi o'rribosarlar **orto, para orientantlar faolliginikamaytiruvchilar sinfini tashkil etadi.**

3. Yadrodagi barcha xolatlar faolligini kamaytiruvchi ($f < 1$, $-\text{NO}_2$, $-\text{CO}_2\text{C}_2\text{H}_5$, $-\text{CF}_3$, $-\text{N}^+(\text{CH}_3)_3$), ayniqsa, orta va para xolatlar faolligi kamayishi meta xolatga nisbatan ko'proq va asosan meta izomerlar hosil bo'ladi. Bu kabi o'rribosarlar **meta orientantlar faolliginikamaytiruvchilar sinfini tashkil etadi.**


Halqani faollashtirib, elektrofil agentni asosan meta holatga yo'naltiruvchi o'rribosar ma'lum emas. Quyidagi jadvalda 3 sinfga oid o'rribosarlar keltirilgan.

Yadrodag'i ba'zi o'rribosarlarning reaktsiyasi tezligi va orientatsiyaga'siri

ortho, para orien-tantlarni faollash-tiruvchilar	ortho, para orientantlar faolligini kamaytiruvchilar	meta orientantlar faolligini kamaytiruvchilar
$-\text{ON}$	$-\text{CH}_2\text{Cl}$	$-\text{NO}_2$
$-\text{O}^-$	$-\text{F}$	$-\text{NH}_3^+$
$-\text{OR}$	$-\text{Cl}$	$-\text{NR}_3^+$
$-\text{OC}_2\text{H}_5$	$-\text{Br}$	$-\text{PR}_3^+$
$-\text{NH}_2$	$-\text{I}$	$-\text{SR}_2^+$
$-\text{NR}_2$	$-\text{CH}=\text{CHNO}_2$	$-\text{IC}_6\text{H}_5^+$
$-\text{NHCOCH}_3$		$-\text{CF}_3$
--alkil (mn. CH_3)		$-\text{CCl}_3$
-aril (mn C_6H_5)		$-\text{SO}_3\text{H}$
		$-\text{SO}_2\text{R}$
		$-\text{CO}_2\text{H}$
		$-\text{CO}_2\text{R}$
		$-\text{CONH}_2$
		$-\text{CHO}$
		$-\text{COR}$
		$-\text{C}\equiv\text{N}$

Aromatik yadrodag'i elektrofil almashinishda elektron effekt ta'siri




Aromatik yadroda almashinishda o'rribbosarlarning induktiv (induktsion) effekti muhim rol o'ynaydi. Elektronoaktseptor guruhlar (-I-effekt) musbat zaryadlanganoraliq birikmaning barqarorligini kamaytiruvchi, elektrodonor guruhlar esa aksincha (QI-effekt) barqarorligini kuchaytiruvchi elektrostatik ta'sir ko'rsatadi. Ushbu xolatnikuchli elektronoaktseptor xususiyatga ega bo'lган $(SN_3)_3N^Q$ guruh misolida ko'rib chiqamiz. Agar oraliq birikmaning gibrid strukturasini yozilsa xamda u erda X elektrofil almashinuvchi guruhni ifodalasa, shu narsa yaqqol ko'rindiki, halqada hosil bo'lган zaryad o'rribbosar $(SN_3)_3N^Q$ guruh bo'lganda almashinish uchun noqlay bo'ladi. Ayniqsa orto- va para-xolatlarda, chunki qo'shni atomlarda bir xil zaryad bo'lib qoladi.



Shunday qilib, har uchchala oraliq mahsulot benzoldagidan beqarorroq bo'lib, orto va para oraliq mahsulotlar meta xolatdagidan xam beqarordir. Bu o'z navbatida faollik kamayib, meta orientatsiyaga olib kelishi kerak. Haqiqatda xam shu xolat kuzatiladi. Boshqa kuchli elektronoaktseptor guruhlar xam faollikni kamaytirib, meta orientatsiyaga olib keladi:

-CF₃, -P(CH₃)₃, -SO₃H, -CO₂H, -CO₂CH₃, -CONH₂, -CHO, -COC₆H₅, -C≡N


Alkil o'rribosarlarning faollashtiruvchi va orto va para orientirlash ta'siri xam induktiv effektlar tushunchasi orqali izohlanishi mumkin. Masalan, toluolni orto, meta, para almashinishida oraliq birikmalar metil guruhi elektron berishi mumkinligi (QI-effekt) xisobiga barqaror bo'ladi va shu xisobiga musbat zaryad qisman kompensatsiyalanadi.



Barqarorlanish orto va para almashinishda yaqqol ifoda bo'ladi, chunki musbat zaryadning bir qismi metil bilan bog'langan uglerod atomida bo'ladi.

1.4. Antratsenning molekulyar tuzilishi.

Antratsen kimyoviy tuzilishi jihatidan o'zaro kondensirlangan uchta benzol halqasidan iborat: Antratsendagi 1,4,5,8 – holatlar α – holat, 2, 3, 6, 7 – holatlar β – holat va 9, 10 – holatlar γ – holat yoki mezo holat deb ataladi.




Antratsenning molekulasi quyidagicha tuzilgan:

2 Antratsenning nima uchun bunday xosslarni namoyon qilishini quyidagicha tushuntirishimiz mumkin. Odatda elektrofil almashinish reaksiyalari ham π -kompleks hosil bo'lish bosqichida aromatiklikning qisman buzilishi bilan boradi. Bunda stabillanish energiyasining yo'qotishi benzol yoki ajratilgan benzol halqali birikmalarnikidan sezilarli darajada kam bo'ladi. Antratsenning stabillanish energiyasini boshqa aromatik birikmalarga solishtirib ko'raylik. Stabillanish energiyasi (kJ/mol): benzolda 150, naftalinda 255, bifenilda 300, antratsenda 350, fenantren 385 ni tashkil etadi. π -Kompleks hosil bo'lishi va aromatiklikning buzilishida stabillanish energiyasining yo'qotishi (kJ/mol): benzolda 150, bifenilda 150, naftalinda 105 ni tashkil etadi. Markaziy yadrolarda: antratsen 50, fenantren 50kJ/mol. Chetki yadrolarda: antratsen 95, fenantren 130kJ/mol. Bu qiymatlarni quyidagicha hisoblanadi: masalan, fenantrenning stabillanish energiyasi 385kJ/mol ga teng, markaziy halqada aromatiklik buzilganidan keyin bifenilning aromatik sistemasi saqlanadi, uning stabillanish energiyasi 300kJ/mol. Demak, stabillanish energiyasining yo'qotishi bu holda (385-300)=85kJ/molni tashkil etadi. Fenantrenning chetki halqasida aromatiklikning buzilishida naftalin aromatik sistemasi saqlanadi, uning stabillanish energiyasi 255kJ/mol. Stabillanish energiyasining yo'qotishi bu holda (385-255)=130kJ/mol ga teng. Yuqoridagilardan quyidagi xulosa kelib chiqadi:


1. Benzol va ajratilgan benzol halqali birikmalarga nisbatan naftalin, antratsen va fenantren elektrofil almashinish reaksiyalariga oson kirishadi.

2. Antratsen va fenantrenlardagi markaziy halqalaming reaksiyon qobiliyati chetki halqalarga nisbatan yuqori bo'ladi. Elektrofil almashinish bu birikmalarda asosan 9,10-holatlarda sodir bo'ladi.

Antratsenni yumshoq sharoitlarda galogenlash va nitrolash oraliq 9,10-birikish mahsulotlari hosil boiishi bilan boradi, so'ngra u antratsenning 9-holatda almashgan hosilasiga o'tadi. Elektrofil reagent ortiqcha olinganida 9,10-dialmashgan mahsulot ham hosil bo'ladi:



Antratsen metal holidagi natriy bilan reaksiyaga kirishib to'q ko'k rangli modda - 9, 10 – dinatriyidigdroantratsen hosil bo'ladi:



1.5. Antratsenning fizik va kimyoviy xossalari.

Antratsen, – kondensirlangan uchta benzol yadrosidan iborat aromatik uglevodorod. Mol. m. 178,24. Rangsiz kristall, eritma va suyuqlikda saqlanib qoluvchi binafsha rangda fluoressensiyanadi (tovlanadi). Suyuqlanish temperaturasi 216° , qaynash temperaturasi 342° . Antratsen toshko'mir smolasi tarkibida 0,3 – 0,5% bo'ladi va shu smolani haydash jarayonida $270 - 360^\circ$ da ajralib chiqadigan antratsen moyidan olinadi. Antratsen birinchi marta 1832 yilda toshko'mir smolasi tarkibida topilgan.

Antratsen unumlari sariq, zarg'aldoq yoki qizil rangli kristall moddalar. Erkin aglikonlari etil efiri, xloroform, benzol va boshqa organik erituvchilarda yahshi eriydi; suvda erimaydi, lekin fenolyatlar hosil qilish hisobiga ishqorning suvli eritmalarida yahshi eriydi.

Glikozid shaklidagi antratsen unumlari suvda, ishqorlarda yahshi, etanol va metanolda kamroq, benzol, etil efiri, xloroformda erimaydi. Antratsen unumlari 210^0 gacha qizdirilganda bug'lanadi.



Ko'pchilik antratsen unumlari ultrabinafsha nurlari ta'sirida tovlanadi, tovlanish xarakteri asosiy yadroning oksidlanish darajasiga hamda almashuvchilar soniga va joylanish o'rniga bog'liq bo'ladi; antraxinonlar olov rang, qizil, zarg'aldoq, pushti rangli tovlanish bilan xarakterlanadi; antron va antranollar - sariq, havo rang, binafsha rangli bo'ladi.

Antratsen unumlari qizdirilganda uchuvchanlik (sublimatsiya) xossasiga ega.

Antratsen unumlarning glikozidlari va qaytarilgan formalari optik aktiv moddalar bo'lib, qutblangan yorug'lik tekisligini o'ngga yoki chapga buradi.

Ishqor eritmasi ta'sirida antratsen glikozidlari parchalanib antroxinolat hosil qiladi, antroxinolatlar to'q qizil rangda bo'ladi. SHu antroxinlatlarni suvdagi eritmasiga kislota qo'shilsa yana aglikonga qaytib qizil rang yo'qolib, suvda erimaydigan sariq cho'kma hosil bo'ladi


Antratsenning ba'zi fizik xossalari:

	
Umumiy formulasi	$C_{14}H_{10}$
Molekulyar massasi	178 g/mol
Suyuqlanish temperaturasi °C	218 °C




Qaynash temperaturasi °C	340 °C
Agregat xolati	qattiq
Rangi	Yaltiroq sariq
Ervchanligi (suvda)	Dearli erimaydi
Zichligi	1.25g/sm ³
Florosensiyalanish xususiyati	Bor

1.6. Diels - Alder reaksiysi


Tabiiy politsiklik birikmalarning analoglarini sintez qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan dien sintezi (Dils-Alder reaksiyasi, 1928y) peritsiklik reaksiyalarning siklobirikish turiga kiradi. Bunda 1,3-dienlarning 1,4-holatda faol qo‘sh bog‘li alkenlarga birikishi natijasida olti a’zoli, bitta qo‘shbog‘ saqllovchi halqali birikmalar (siklogeksen hosilalari) olinadi:




Dils-Alder reaksiyasida dienning 4π -sistemasi dienofilning 2π -elektron sistemasi bilan o‘zaro ta’sirlashadi. Reaksiya mahsuloti – addukt (addition – birikish) deb ataladi. π -Bog‘ga nisbatan hosil bo‘ladigan π -bog‘ mustahkamligi sababli, reaksiya ekzotermik bo‘ladi. Reaksiya larning ko‘pchiligi qaytar bo‘lib, yuqori temperaturalarda addukt dastlabki mahsulotlarga parchalanadi (retrodien parchalanish). Reaksiyon qobiliyatি yuqori dienofil sifatida elektronakseptor guruhlar (CN, COOR, COR, CHO kabi) tutgan alkenlar qatnashadi. Shuningdek, $—C\equiv C—$ bog‘li birikmalar, p-benzoxinon, azodikarbon efiridagi $—N=N-$ bog‘i, nitrozobirikmalardagi nitrozoguruuh ham faol dienofil sifatida reaksiyaga kirishadi. Dils-Alder reaksiyasida atsiklik va siklik dienlar qatnashsa ham, ular sisoid S-sis-konformatsiyaga o‘ta oladigan bo‘lishi kerak. Masalan, quyidagi dienlar S-trans-konformatsiyadan chiqa olmasligi sababli Dils-Alder reaksiyasida qatnasha olmaydi:





Dils-Alder reaksiyasi sinxron bo‘lib, qo‘sh bog‘ga nisbatan stereospetsifik sin-birikish bilan boradi, ya’ni addukt hosil bo‘lishida dien va dienofil konfiguratsiyasi saqlanadi. Masalan, butadienning malein va fumar kislotalari efirlari bilan o‘zaro ta’sir mahsulotlarida konformatsiyaning saqlanganligini ko‘rish mumkin:




Siklik dien ishtirokidagi Dils-Alder reaksiyasi yanada oson borib, bitsiklik birikma hosil bo‘ladi. Masalan, siklopentadienning malein angidridi yoki akril kislotasi efiri bilan reaksiyalari xona haroratida miqdoriy unum bilan boradi:




Stereoeselektiv Dils-Alder reaksiyasida asosiy mahsulot sifatida endoizomer olinadi. Siklopentadienning reaksiyon qobiliyati yuqori bo‘lib, uzoq aqlanganida ditsiklopentadien hosil qilib dimerlanadi:




Shuningdek, siklobutadienning reaksiyon qobiliyati juda yuqoriligi sababli uni ajratib olishning imkoniy bo‘lmaydi. U juda past haroratlarda ham dimerlanadi. Bu holat siklobutadienda YuBMO va QBMO energiyalarining juda yaqinligi bilan tushuntiriladi. Siklik dienlarning Dils-Alder reaksiyasidagi reaksiyon qobiliyati quyidagi qatorda ortadi, chunki siklopentadienda 1,4-holatlar orasidagi masofa dienofildagi qo‘sh bog‘ uzunligiga mos kelishi yuqori darajada bo‘ladi:





Dienning YuBMO va dienofilning QBMO energiyalari va bir vaqtning o‘zida dienofilning YuBMO va dienning QBMO energiyalari yaqin bo‘lsa, Dils-Alder reaksiyasi tezligi katta bo‘ladi. *Alderning empirik stereokimyoviy qoidasi*: kinetik nazorat qilinadigan jarayonlarda dienofilning X o‘rinbosari endo-holatni egallaydigan izomer yuqori unumda hosil bo‘ladi. “*Endo*” tushunchasi bitsiklik sistemada X o‘rinbosar va metilen ko‘prigi trans-holatda, “*ekzo*” esa ularning sis-holatda joylashishini ifodalaydi:




Dils-Alder reaksiyasida dienofillar sifatida barcha π -bog‘ tutgan birikmalar (alken, alkin, azometin, nitril, karbonil, tiokarbonil, azobirikmalar, nitrozobirikmalar) qatnashishi mumkin. Dienlar va ularning N, O, S atomi tutgan analoglari reaksiyada dien sifatida qatnashadi (XX-bobga qarang). Dils-Alder reaksiyasi sharoiti reagentlar tuzilishiga bog‘liq bo‘lib, turli emperaturalarda, har xil erituvchilarda va gaz fazada ham olib boriladi:



Dils-Alder reaksiyasi ko‘pincha “bosh-bosh” orientatsiyasi bo‘yicha regioselektiv sodir bo‘ladi. Masalan:



“Bosh-dum” orientatsiyasi bo‘yicha mahsulot hosil bo‘lishi juda kam uchraydi. Nazariy jihatdan bunday mahsulotlar dien va dienofil tarkibida donor guruuhlar bo‘lganida hosil bo‘ladi:



Dils-Alder reaksiyasi sintetik imkoniyatlaridan tashqari kon’yugirlangan qo‘sh bog‘larni aniqlash imkonini ham beradi. Reaksiya bo‘yoqlar, dori vositalari, insektitsidlar (dildrin, aldrin, xlordan), surkov moylari,

plastmassalar olishda ishlatiladi. Retro-dien reaksiyalari – Dils-Alder reaksiyasi mahsulotlarining dastlabki moddalarga parchalanishi. Dils-Alder reaksiyasi mahsuloti oson hosil bo‘lsa, retro-reaksiya qiyin, aksincha, Dils-Alder reaksiyasi mahsuloti qiyin hosil bo‘lsa, retro-reaksiya oson boradi.

II BOB. TAJRIBA QISM

FOYDALANILGAN KIMYOVIY JIXOZ VA REAKTIVLAR:

I. Kimyoviy jixozlar:

- 1) Mo'rili shkaf
- 2) Analitik tarozi
- 3) Elektron tarozi
- 4) Quritish shkafi
- 5) Termomet 250°C
- 6) O'lchov kolbalari DS1770-77 50 sm^3 , 100 sm^3 , 250 sm^3 , 500 sm^3 , 1000 sm^3 ;
- 7) Pipetkalar $0,1 \text{ sm}^3$, $0,5 \text{ sm}^3$, 1 sm^3 , 2 sm^3 , 5 sm^3 , 10 sm^3 ;
- 8) O'lchov silidrlari 10 sm^3 , 25 sm^3 , 50 sm^3 , 100 sm^3 , 250 sm^3 , 500 sm^3 ;
- 9) Kimyoviy stakanlar: 50 sm^3 , 100 sm^3 , 250 sm^3 , 500 sm^3 :
- 10) Filtrlar Tsh 6-03-16761
- 11) IQ spektrometr-(PERKIN)
- 12) Silifol plastinka
- 13) Kapillyar nay
- 14) Silikagel
- 15) Pensillin idishchalar
- 16) Probkalar
- 17) GX-MS xromatografiyasi
- 18) Gaz gorelka
- 19) Qum hammomi
- 20) Shtativ
- 21) Sokslet asbobi
- 22) Suv hammomi
- 23) VaKlyayzen kolbasi
- 24) Varonka
- 25) Lauchka

II. Kimyoviy reaktivlar:

- 1) Antratsen
- 2) Kaliy ishkor
- 3) Natriy sufit

- 4) Dietil efir
- 5) Mentol
- 6) Etanol (99%)
- 7) Distillangan suv
- 8) Malein angidridi
- 9) Geksan
- 10) Atseton
- 11) Meta ksilol
- 12) Orta ksilol
- 13) Sulfat kislota (kont)
- 14) Xloroform
- 15) Benzol
- 16) Atsetil
- 17) Yantar angidrid

Ro'yan o'simligi ildizini ekstraksiyalash.

Ro'yan o'simligi ildizi kovlab olinib, 105^0 C haroratda quritildi va maydalandi (1-rasm)



1-rasm. Maydalangan ro'yan ildizi

Maydalangan ro'yan ildizidan 100 g miqdorda tortib olinib, tubi yumaloq termostatik 1000 ml li ekstraksiya kolbasiga solindi va uning ustiga 500 ml geksan quyilib chayqatildi.

Kolba suv hammomiga joylashtirilib, unga suvli sovutgich o'rnatildi. Suv hammomida qizdirish 60 C haroratda 1 soat vaq davom ettirildi. Haroratni doimiyligini taminlash maqsadida suv hammomiga termometr o'rnatildi. (**2-rasm**)



2-rasm. Estraksiya jarayoni

1 soatdan so'ng kolba suv hammomidan olindi va Byunxer voronkasida vaakumli so'rgich yordamida filtrlab olindi. (**3-rasm**)

Ekstraksiyalash jarayoni xuddi shu tartibda yana bir marotaba olib borildi va oligan ekstrakt eritmalarini aralashtirildi



3-rasm. Olingan ekstraktni Byunxer voronkasida filtrlash

Olingan ekstraktni konsentrlash

Filtrdan o'tkazilgan eitmaning yarmi tubi yumaloq 1000 ml li kolbaga solindi va rotorli bug'latgichga joylashtirilib, eritmadiagi geksan bug'latib yuborildi. Bug'latish jarayoni oxirigach yetkazilmasdan 10 ml eritma qolgunicha davom ettirildi.

So'ngra qolgan eritma boshqa kolbaga o'tkazildi va dastlabki eritmaning qolgan qismi rotorda bug'latildi. Bu eritmadan ham taxminan 10 ml qoldirilib bug'latish jarayoni yakunlandi.(4-rasm)

Bug'latishdan olingan eritmalar qo'shilib, og'zi berkitildi.



4-rasm. Quyuq ekstrakt olish jarayoni

II.3.2 Yupqa qavatli xromotografiya

SiO_2 dan tayyorlangan silifol qog'ozidan 5 sm uzunlikda kesib olindi. Uning ikki chetidan 0,5 sm uzunlikda grafitli qalam bilan start va finish chiziqlari chizildi. Start chizig'iغا ikkita nuqta bit xil uzoqlikda qo'yildi. Bu nuqtalarning biriga antratsen (A) va ikkinchisiga Ekstrakt (E) belgisi qo'yildi.

Yupa qavatli xromotografiyani amalgalash uchun benzol va geksamning 1:1 nisbatdagi sistemasi tayyorlandi.


Start chizig'iغا antratsen eritmasi va ekstraktlardan kapillyar naychalar orqali bir necha tomchidan tomizildi va sistema soingan kolonkaga joylashtirilib qapog'i berkitildi.(5-rasm)



5-rasm. Yupqa qavatli xromotografiya o'tkazish jarayoni.

Erituvchi finish chizig'iga yetib borgandan so'ng , zilifol qog'ozi qisqich yordamida kolonkadan chiqarilib, mo'rili shkafda quritldi.

Silifol qog'oz qurigandan so'ng UF lampada ko'rildi va ekstrakt tarkibida bir nechta moddalarning turli ranglarda hosil qilgan dog'lari aniqlandi.(6-rasm)
Guvoh modda sifatida ishlatilgan antratsen zangori angli dog' hosil qildi va uning Rf qiymati 0,78 ekanligi hisoblab topildi.



6-rasm. UF lampada xromotografiyani ko'rish.

Yuqoridagi tartibda ildiz namunasi etil spirit va sirka kislotada ekstraksiya qilinib, yupqa qavatli xromotografiya qilib ko'rildi.
Etil spirtidan hosil qilingan ekstrakt antratsen bilan birgalikda xromotografiya qilinib UF lampa nuri ostida ko'rildi
Sirka kislotali ekstrakt hamantratsen bilan birgalikda yupqa qavatli xromotografiya qilindi.

II.3.3. *Rubia tictorum* L ildizi tarkibidagi moddalarni kolonkali xromotografiya usulida ajratish


Ro'yan ildizi tarkibidagi moddalarni ajratish uchun geksanli quyuq ekstrakt tanlab olindi. Chunki bu ekstrakt tarkibida besh xil modda borligi yupqa qavatli xromotografiyada aniqlandi hamda geksanni uchuvchanlik xususiyati bu usulda ajratishga mos keladi.

Dastlab 100 ml hajmli kolonka olinib uni ichiga benzol va geksanning 1:1 nisbtagi aralashmasi(elyuent)da eritilgan silikogel(5/40) solindi.
Uning ustiga shu silikogelda aralashtirilib bug'latilgan ekstrakt kukunlari solindi.
So'ngra kolonkaning yuqori qismiga yana ozroq silikogel kukunidan solindi (8-rasm)



8-rasm. Ro'yan ildizi estraktini koonkali xromotografiya usulida ajratish

Kolonkali xromotografiya jarayonida kolonkadan tomchilab ajralib chiqayotgan elyuent qayta kolonkaga solinib borildi. Vaqt o'tgach ekstrakt tarkibidagi moddalarni kolonka bo'ylab harakatlanayotganligi kuzatildi(9-rasm).



9-rasm. Kolonkada moddalarning harakatlanishi

Doimiy ravishda kolonkaga elyuent quyib turildi va harakatlanayotgan rangli moddalar kolonkaning quyi qismiga yetib kelgach stakan bir xil hajmli raqamlangan kichik shisha idishlar(pensushka)ga almashtirildi(10 rasm).




10-rasm. Kolonkadan chiqayotgan moddalarni yig'ib olish jarayoni

Shu tariqa idishlarga yig'ilgan moddalar har xil rangda ekanligi aniqlandi(11-rasm)




11-rasm. Kolonkadan ajralib chiqayotgan moddalar.

11-rasmda ko'rsatilgan eritmalar yupqa qavatli xropmotografiya qilinganda(sistema benzol:geksan 1:1) 0 va 1 idishda bitta modda 2 va 3 idishda 2 xil modda borligi aniqlandi(12-rasm).



12-rasm. Ajratib oliban moddalarning YuQX tahlili

4-idishdan boshlab ikkinchi modda hosil bo'layotganligi aniqlandi(13-rasm)



13-rasm. Ikkinci modda tahlili

Bu moddaning ajralishi tugagach keying modda chiqqa boshladidi. Shunday qilib kolonkali xromotografiya natijasida 3 ta modda ajratib olindi. 1- va 3-moddalarning konsentratsiyasi juda kam miqdorda bo'lganligi sababli, ular erkin holda ajratib olimadi va tarkibi tekshirilmadi.

Ikkinci bo'lib ajralib chiqqan modda eritmalari aralashtirilib, rotorli bug'latgichda erituvchisibug'latib olindi(14-rasm)



14-rasm. Erituvchilarni bug'latish jarayoni.

Kolba tubida qolgan qizil rangli modda shpatel yordamida yig'ib olindi.

3.4 Antratsenning malein angidridi bilan yangi xosilalarini sintezi

1) Toluol eritmasida borishi

Elektron torazida 1.78 gr antratsen va 0.98 gr malein angidrid o'lchab olamiz.

Dastlab tubi yumaloq kolbaga 20 ml toluol quytildi so'ngra u biroz qizdirilib uni ustiga oz ozdan 1.78 gr antratsen solinadi hamma antratsen bo'lakchalari erib timiq eritma xosil bo'ladi. Songra uni ustiga 0.98 gr malein angidrid solinadi xosil bo'lgan aralashma 3 soat davomida qaynatiladi. Sintez tugagandan so'ng xosil bo'lagan eritma issiq xolida boshqa 50 ml li stakanga quyiladi va sovitiladi sovish natijasida organic modda kristallari xosil bo'ladi. Xosil bo'lgan kristallar yig'ib olinib uni ustiga 20 ml etil atsetat quyiladi va qaynatilib sovitiladi ya'ni qayta kristallanadi. Bu xol 2 marotaba takrorlanadi. Silika geli yoki alyuminiy oksidi bilan qoplangan plastinkada yupqa qatlamlı xromatografiya yordamida amalga oshiriladi. Olingan kristallarning toluol eritmasidan namunalari kapillyar bilan plastinkaning boshlang'ich chizig'iga qo'llaniladi. Buning uchun olingan bir nechta kristallar shisha slaydda bir necha tomchi toluolda eritiladi. Ushbu eritmaning

uchta dagi plastinkaga joylashtirilgan. Toluol quriganidan so'ng, plastinka xromatografiya xonasiga joylashtiriladi, uning pastki qismida xloroform 0,5 sm qatlam bilan quyiladi va hal qiluvchi old plastinkaning yuqori qismiga (yuqori chetidan ~ 0,5 sm masofaga) o'tishi mumkin, shundan so'ng plastinka kameradan chiqariladi, quritiladi. xloroform qoldiqlari va dog'lar paydo bo'lishi uchun yod kamerasiga joylashtirilgan. Yangi paydo bo'lgan dog'lar qalam bilan belgilanadi, shundan so'ng har bir nuqtaning Rf qismi hisoblanadi. Plitada Rf qiymati 0,3 dan 0,8 gacha bo'lgan 3 ta dog' paydo bo'lishi kerak. Agar har bir satrda plastinkada bir nechta nuqta bo'lsa (Rf qiymatlari past va yuqori bo'lsa), mahsulot etarlicha toza emas deb hisoblanadi. Unum 60 %

2) Ksilol eritmasida borishi

Yuqorida aytilgan xolat yana bir bor takrorlanadi u reaksiyadan buni farqi bunda reaksiya unumi oshadi bunga sabab ksilolning yuqori temperaturada qaynashidir. Unum 85 %

3) Quruq xolda reaksiyani borishi

1.78 gr (0.01mol) antratsen va 0.98 gr (0.01mol) malein angidrid 50 ml li kolba ga dastlab malein angidrid solinadi u juda tez eriydi butkul erib bolgandan so'ng uni ustiga oxista oz ozdan antratsen solinadi. Kolbaga tushayotgan antratsen butkul erib ketishi kerak. Antratsenning miqdori ortishi bilan temperatura ham ortib boradi. Olingan antratsenning barchasi solinganda temperatura 250 C° ga yetishi kerak va 5 daqiqadan so'ng reaksiya oxiriga yetib boradi. Tamperatura juda katta bo'lsa aralashmanging kuyishiga sabab bo'ladi. Suyuq eritma sovib boshlagach idish devorlarida uzun uzun kristallar xosil bo'ladi. Pastki qismida esa katta katta kristallar xosil bo'ladi. Olingan modda etilatsetat yordamida qayta kristallanadi va uni tekshirish mumkin. Reaksiya unumli bo'lib taqriban 99% ga teng. Bu usul juda ham samarali xisoblanadi bir yo'la ham vaqtidan va energiyadan yutiladi.

III BOB. OLINGAN NATIJALAR TAXLILI

3.1. 1.78 gr (0.01mol) antratsen va 0.98 gr (0.01mol) malein angidrid 50 ml li kolba ga dastlab malein angidrid solinadi u juda tez eriydi butkul erib bolgandan so'ng uni ustiga oxista oz ozdan antratsen solinadi. Kolbaga tushayotgan antratsen butkul erib ketishi kerak. Antratsenning miqdori ortishi bilan temperatura ham ortib boradi. Olingan antratsenning barchasi solinganda temperatura 250 C° ga yetishi kerak va 5 daqiqadan so'ng reaksiya oxiriga yetib boradi. Tamperatura juda katta bo'lsa aralashmanging kuyishiga sabab bo'ladi. Suyuq eritma sovib boshlagach idish devorlarida uzun uzun kristallar xosil bo'ladi. Pastki qismda esa katta katta kristallar xosil bo'ladi. Olingan modda etilatsetat yordamida qayta kristallanadi va uni tekshirish mumkin. Reaksiya unumli bo'lib taqriban 99% ga teng. Bu usul juda ham samarali xisoblanadi bir yo'la ham vaqtdan va energiyadan yutiladi.

Xosil bo'lgan adduktning fizik va kimyoviy xossalari o'rGANildi va quyidagi jadvallarga solindi.

Fizik xossalari	Malein angidrid	antratsen	Addukt
Suyuqlanishi	54°C	216°C	268°C
Ervchanligi (suv)	Yaxshi	Yamon	Yamon
Zichligi	1.2	0.9	1.3
Rangi	Oq	Sariq	Rangsiz kristal
Hidi	O'tkir hidli	Hidsiz	Hidsiz
Qaynash T	202°C	360°C	412°C

3.2. Antratsenning fizik xossalariini laboratoriyyada o'rganish

Dastlab olingan addukt UF 7spektroskop yordamida taxlil qilindi



HULOSALAR

1. “Rubia tectorum L” o’simligi илдизининг кимёвий тарқеби хроматографик усулда ўрганилди.
2. “Rubia tectorum L” o’simligi илдизи тарқибидан антратсенни ажратиб олиш усулі тадқиқ qilindi;
3. Антратсенning malein angidrid bilan yangi hosilasi sintez qilish usuli yaratildi;
4. Ilk bor bioorganika instituti labaratoriyasida антратсенning malein angidridi bilan yangi xosilasi sintez qilindi;
5. Sintez qilingan yangi модданинг fizik-kimyoviy kattalıklari aniqlanib o’rganildi.
6. Sintez qilingan антратсенning malein angidridi bilan yangi hosilasining tuzilishi IQ-spektroskopik усулда тадқиқ qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan" Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O'zbekiston, 2017. - 56 b.
2. I.A.Karimov. —"Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo`lini izchil davom ettirirsh – taraqqiyotimizning muhim omilidir". —Ishonch gazetasi 2010 yil 8 – dekabr.
3. О.С.Садиков, К.С.Султанов Органик химия Тошкент, Навоий, 30, «Уқитувчи» нашриёти. 1966
4. Farmakognoziya (Н.Xolmatov, О'.Ahmedov) Abu Ali ibn Sino Toshkent 1997.
5. Химический анализ лекарственных растений Под редакцией проф Н. И. Гриневич, доц. Л. Н Сафонич МОСКВА «ВЫСШАЯ ШКОЛА» 1983
6. <http://www.oc-praktikum.de>
7. H. C. Bhardwaj & K. K. Jain (1982). "Indian dyes and dyeing industry during 18th–19th century" (http://202.41.82.144/rawdataupload/upload/insa/INSA_1/20005af6_70.pdf) (PDF). Indian Journal of History of Science. New Delhi: Indian National Science Academy. 17 (11): 70–81.
8. "Where did the Redcoat red dye come from?" (http://footguards.tripod.com/06ARTICLES/ART33_madder.htm). The First Foot Guards. Retrieved 15 February 2011.
9. Jill Goodwin (1982). A Dyer's Manual. Pelham Books. p. 65. ISBN 978-0-7207-1327-5.
10. John Cannon & Margaret Cannon (2002). Dye Plants and Dyeing (2nd ed.). A & C Black. pp. 76, 80. ISBN 978-0-7136-6374-7.
11. Jane Tozer & Sarah Levitt (1983). Fabric of Society: A Century of People and their Clothes 1770–1870. Laura Ashley Press. pp. 29–30. ISBN 978-0-9508913-0-9.
12. Culpeper's Herbal: Madder (<http://www.bibliomania.com/2/1/66/113/frameset.html>) at bibliomania.com
13. Kalyoncu, Fatih; Cetin, Burcu; Saglam, Hüsnüye (2006). "Antimicrobial activity of common madder (Rubia tinctorumL.)". Phytotherapy Research. 20 (6): 490–2. PMID 16619348

(<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pubmed/16619348>) doi:10.1002/ptr.1884
(<https://doi.org/10.1002%2Fptr.1884>).

14. Karim, Ahmed; Mekhfi, Hassane; Ziyyat, Abderrahim; Legssyer , Abdelkhaleq; Bnouham, Mohammed; Amrani, Souliman; Atmani, Fouad; Melhaoui, Ahmed; Aziz, Mohammed (2010). "Anti-diarrhoeal activity of crude aqueous extract of *Rubia tinctorum* L. Roots in rodents". Journal of Smooth Muscle Research. 46 (2): 119–23. PMID 20551592 (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pubmed/20551592>) doi:10.1540/jsmr.46.119 (<https://doi.org/10.1540%2Fjsmr.46.119>)
15. Madder (<http://www.webmd.com/vitamins-supplements/ingredientmono-557-MADDER.aspx?activeIngredientId=557&activeIngredientName=MADDER>), WebMD.
16. Inoue, Kaoru; Yoshida, Midori; Takahashi, Miwa; Fujimoto, Hitoshi; Ohnishi, Kuniyoshi; Nakashima, Koichi; Shibutani, Makoto; Hirose, Masao; Nishikawa, Akiyoshi (2009). "Possible contribution of rubiadin, a metabolite of madder color, to renal carcinogenesis in rats". Food and Chemical Toxicology. 47 (4): 752–9. PMID 19167447 (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pubmed/19167447>) . doi:10.1016/j.fct.2009.01.003 (<https://doi.org/10.1016%2Fj.fct.2009.01.003>).
17. Inoue, Kaoru; Shibutani, Makoto; Masutomi, Naoya; Toyoda, Kazuhiro; Takagi, Hironori; Takahashi, Miwa; Fujimoto, Hitoshi; Hirose, Masao; Nishikawa, Akiyoshi (2008). "One-year chronic toxicity of madder color in F344 rats –Induction of preneoplastic/neoplastic lesions in the kidney and liver". Food and Chemical Toxicology. 46 (10): 3303–10. PMID 18723070 (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pubmed/18723070>) . doi:10.1016/j.fct.2008.07.025 (<https://doi.org/10.1016%2Fj.fct.2008.07.025>).
18. Masutomi, N; Shibutani, M; Toyoda, K; Niho, N; Uneyama, C; Hirose, M (2000). "A 90-day repeated dose toxicity study of madder color in F344 rats: A preliminary study for chronic toxicity and carcinogenicity studies" (<http://www.nihs.go.jp/library/101-134/118%282000%29.pdf#62>) (PDF). Bulletin of National Institute of Health Sciences (118): 55–62. PMID 11534128 (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pubmed/11534128>) .
19. Inoue, Kaoru; Yoshida, Midori; Takahashi, Miwa; Shibutani, Makoto; Takagi, Hironori; Hirose, Masao; Nishikawa, Akiyoshi (2009). "Induction of kidney and liver cancers by the natural food additive madder color in a two-year rat carcinogenicity study". Food and Chemical Toxicology. 47 (1): 184–91. PMID 19032970 (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pubmed/19032970>) . doi:10.1016/j.fct.2008.10.031 (<https://doi.org/10.1016%2Fj.fct.2008.10.031>).
20. Yokohira, M.; Yamakawa, K.; Hosokawa, K.; Matsuda, Y.; Kuno, T.; Saoo, K.; Imaida, K. (2008). "Promotion Potential of Madder Color in a Medium-Term Multi-Organ Carcinogenesis Bioassay Model in F344 Rats". Journal of Food Science. 73 (3): T26–32. PMID 18387132 (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pubmed/18387132>) . doi:10.1111/j.1750-3841.2008.00685.x (<https://doi.org/10.1111%2Fj.1750-3841.2008.00685.x>).
21. Westendorf, J; Pfau, W; Schulte, A (1998). "Carcinogenicity and DNA adduct formation observed in ACI rats after long-term treatment with madder root, *Rubia tinctorum* L". Carcinogenesis. 19 (12): 2163–8. PMID 9886573 (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pubmed/9886573>) . doi:10.1093/carcin/19.12.2163 (<https://doi.org/10.1093%2Fcarkin%2F19.12.2163>).

- 22.** Blömeke, Brunhilde; Poginsky, Barbara; Schmutte, Christoph; Marquardt, Hildegard; Westendorf, Johannes (1992). "Formation of genotoxic metabolites from anthraquinone glycosides, present in Rubia tinctorum L". Mutation Research/Fundamental and Molecular Mechanisms of Mutagenesis. 265 (2): 263. doi:10.1016/0027-5107(92)90055-7 (<https://doi.org/10.1016%2F0027-5107%2892%2990055-7>) .
- 23.** Inoue, Kaoru; Yoshida, Midori; Takahashi, Miwa; Fujimoto, Hitoshi; Shibusawa, Makoto; Hirose, Masao; Nishikawa, Akiyoshi (2009). "Carcinogenic potential of alizarin and rubiadin, components of madder color , in a rat medium-term multi-organ bioassay". Cancer Science. 100 (12): 2261–7. PMID 19793347 (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pubmed/19793347>) . doi:10.1111/j.1349-7006.2009.01342.x (<https://doi.org/10.1111%2Fj.1349-7006.2009.01342.x>) .
- 24.** Вақо умаров органик кимyo Тoshkent «iqtisod -moliya » 2007
- 25.** Shomardonov R.A. Organik kimyo “Yangi yo’l ploigraph Service MChJ Toshkent – 2008
- 26.** Инструкция по фракционированию консервированной крови на клеточные элементы и плазму //МЗ СССР. 1987. –с.
- 27.** Коллагенопластика /Под ред. В.В. Кованова. –М.: Медицина, 1978.
- 28.** Патент №2122867 РФ. Кровоостанавливающая губка., 30.09.96/10.12.98.
- 29.** Адамян А.А. Современные биологически активные перевязочные средства в комплексном лечении ран /Современные подходы к разработке и клиническому применению эффективных перевязочных средств, шовных материалов и полимерных имплантантов //Междунар. конф.: Тез. докл. - Москва, 2001. –С. 25.
- 30.** Носкова Т.И., Добыш С.В. Классификация и основные характеристики современных перевязочных средств/Современные подходы к разработке и клиническому применению эффективных перевязочных средств, шовных материалов и полимерных имплантантов //Междунар. конф. Тез. докл. – Москва, 2001. –С. 29.
- 31.** Федоров В.Д. Биологически активные перевязочные средства в комплексном лечении гнойно-некротических ран /Современные подходы к разработке и клиническому применению эффективных перевязочных средств, шовных материалов и полимерных имплантантов //Междунар. конф.: Тез. докл. –М;., 2001. 36 –с.
- 32.** Олтаржевская Н.Д., Рыльцев В.В. Новые способы получения лечебных текстильных материалов. //ЦНИИ ТЭИЛЕГПРОМ, -Москва, 1991, 93 -с.

- 33.**Луцевич Э.В., Иванян А.А., Толстых Г.П., Олтаржевская Н.Д. и др. Современные раневые покрытия /Под ред. Э.В. Луцевича. -Москва-Смоленск, 1996, 87 -с.
- 34.**Толстиков Г.А., Муринов Ю.И., Балтина Л.А., Сайтова М.Ю., Зарудий Ф.С., Лазарева Д.Н. // Хим.-фармацевт, журн. 1991. Т. 25, С. 42^44
- 35.**Кричевский Г.Е., Савилова Л.Б., Олтаржевская Н.Д. и др. Современные подходы к разработке эффективных перевязочных средств и полимерных имплантантов //Текстильная химия 1992, №1, -С. 53.
- 36.**Балтина Л.А., Кондратенко Р.М., Толстиков Г.А., Покровский А.Г., Плясунова О.А.Перспективы создания новых противовирусных препаратов на основе глицирризиновой кислоты и ее производных //Химико-фармацевтический журнал. 2009. №10.-С.3-12.
- 37.**Maleic Anhydride, Maleic Acid, and Fumaric Acid Archived 2013-11-02 at the Wayback Machine, Huntsman Petrochemical Corporation.
- 38.**M. N. G James, G. J. B Williams (1974). "A Refinement of the Crystal Structure of Maleic Acid". Acta Crystallographica. B30 (5) (5): 1249–1275. doi:10.1107/S0567740874004626.
- 39.**Kurt Lohbeck, Herbert Haferkorn, Werner Fuhrmann and Norbert Fedtke "Maleic and Fumaric Acids" in Ullmann's Encyclopedia of Industrial Chemistry, Wiley-VCH, Weinheim, 2000. doi:10.1002/14356007.a16_053
- 40.**DSM glyoxylic acid production Archived 2005-11-30 at the Wayback Machine
- 41.**Light isomerization experiment Archived 2005-11-27 at the Wayback Machine (from the University of Regensburg, with video)
- 42.** Kwesi Amoa (2007). "Catalytic Hydrogenation of Maleic Acid at Moderate Pressures A Laboratory Demonstration". Journal of Chemical Education. 84 (12): 1948. doi:10.1021/ed084p1948.
- 43.**"NNFCC Renewable Chemicals Factsheet: Succinic Acid". 3 February 2010. Archived from the original on 20 July 2011.

- 44.** Thakker, Chandresh; Martínez, Irene; San, Ka-Yiu; Bennett, George N. (2017-03-07). "Succinate production in Escherichia coli". *Biotechnology Journal*. 7 (2): 213–224. doi:10.1002/biot.201100061. PMC 3517001. PMID 21932253.
- 45.** "Top Value Added Chemicals from Biomass, Volume 1: Results of Screening for Potential Candidates from Sugars and Synthesis Gas" (PDF). U.S. Department of Energy. November 1, 2004. Retrieved 2013-11-12.
- 46.** Ashford's Dictionary of Industrial Chemicals (3rd ed.), 2011, p. 1517, ISBN 978-0-9522674-3-0
- 47.** "1,4-Butanediol (BDO) Market Analysis By Application (Tetrahydrofuran, Polybutylene Teraphthalate, Gamma-Butyrolactone & Polyurethanes), And Segment Forecasts To 2020". Grand View Research. September 2015. Retrieved 2015-11-18.
- 48.** Peti-Peterdi, János; Gevorgyan, Haykanush; Lam, Lisa; Riquier-Brison, Anne (2012-06-23). "Metabolic control of renin secretion". *Pflügers Archiv: European Journal of Physiology*. 465 (1): 53–58. doi:10.1007/s00424-012-1130-y. ISSN 0031-6768. PMC 4574624. PMID 22729752.
- 49.** Xiao, Mengtao; Yang, Hui; Xu, Wei; Ma, Shenghong; Lin, Huaipeng; Zhu, Honguang; Liu, Lixia; Liu, Ying; Yang, Chen (2012-06-15). "Inhibition of α-KG-dependent histone and DNA demethylases by fumarate and succinate that are accumulated in mutations of FH and SDH tumor suppressors". *Genes & Development*. 26 (12): 1326–1338. doi:10.1101/gad.191056.112. ISSN 0890-9369. PMC 3387660. PMID 22677546.
- 50.** AlexanderApelblat, EmanuelManzurola. Volumetric properties of aqueous solutions of malonic acid. The Journal of Chemical Thermodynamics. Volume 102, November 2016, Pages [63-67]
- 51.** Physico-chemical properties of the C₆₀-tris-malonic derivative water solutions. KonstantinN.Semenov^aNikolaiA.Charykov^bIgorV.Murin^aYuriyV.Pukharenko^c// Journal of Molecular Liquids Volume 201, January 2015, Pages [50-58]
- 52.** XiaSheng^aXueSong^aHuinaZhu^aCleopatraAshleyNgwenya^aHailiangZhao//Effect s of the inter- and intra-molecular hydrogen bonding interactions in forming

atmospheric malonic acid-containing clusters/Chemical Physics Volume 524, 1 August 2019, Pages [14-20]

53.Evaporation of methyl- and dimethyl-substituted malonic, succinic, glutaric and adipic,acid,particles at ambient temperatures,
J.MønsterT.RosenørnB.SvenningssonM.Bilde, Journalof Aerosol Science
Volume 35, Issue 12, December 2004, Pages [1453-1465]

54.Biochemical conversion of sweet sorghum bagasse to succinic acid lEnlin Lo¹Luiza Brabo-Catala²Ioannis Dogaris²Ehab M.Ammar²³George P.Philippidis²Journal of Bioscience and BioengineeringVolume 129, Issue 1, January 2020, Pages [104-109]

55.Ziyo.uz

56. Orbita .uz

57.Arxiv.uz

58. <http://www.oc-praktikum.de>

АДАБИЁТЛАРНИ ЯНА ҚЎШСАНГИЗ ЯХШИ БЎЛАР ЭДИ!